Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 2 (2024) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaning dolzarb muammolari, yechimlari va istiq... DOI: 10.5281/zenodo.24317150

e'tibor bergan holda, ishlab chikaruvchilarga soliq to‘lashda imtièzlar berganligini ko‘rish mumkin.

Amir Temurning moliya sohasida xususan, soliq masalalari haqidagi qarashlarini tahlil qilar ekanmiz, iqtisodchi Adam Smitning «Odamlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risidagi tadqiqot» nomli 1776-yilda nashr kilingan kitobida keltirilgan xulosalarda Amir Temyp qarashlari Evropa mamlakatlarida Temurdan bir necha asr keyin takrorlanganligini ko‘ramiz va Evropa davlatlariga nisbatan O‘rta Osiyoda XIV-XV asrlardayoq moliya-byudjet masalalari rivojlanganligini guvohi bo‘lamiz. Shu o‘rinda yana bir ma'lumot, 1577 yilda Ovrupada fransuz tilida J.Bodenning «Davlat haqida» nomli asari nashr qilingan. Temur tuzuklari XIV asrning oxiri XV asrning boshlarida, ya'ni J.Boden asariga nisbatan tahminan ikki asr oldin shakllangan. J.Boden asarida boshqa masalalari bilan birgalikda moliya masalalari ayniqsa, davlat daromadlari masalalari baèn qilingan edi. Amir Temurning o‘zbek davlatchiligi tizimini takomillashtirishga qaratilgan katta hizmatlaridan biri davlat boshqaruv tizimining an'analarini qayta tiklash bilan chegaralanmasdan, zamon talablarini ko‘zda tutib yangi usullari joriy qilishdan iboratdir [2].

Sohibqiron Amir Temur o‘z vorislariga, temuriyzodalarga o‘zining Tuzuklarini meros qilib qoldirdi. Mazkur Temur tuzuklarida saltanatni adolatli boshqarish sirlari asosiy o‘rin egallagan. Ko‘plab tarixiy, ilmiy manbaalarda berilgan tarixiy ma'lumotlarga asoslangan holda xulosa qilib ayta olamizki, temuriyzodalardan Shohrux Mirzo, Ulug‘bek, Husayin Boyqaro, Sulton Ahmad Mirzo, Umarshayx Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar sulolasi davridagi davlatchilik ishlarida, o‘rta asr Sharq xalqlari haètida ijtimoiy adolat tamoyillariga amal qilingan va ushbu tamoyil davlat boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Temur tuzuklari. Toshkent.1991
2. Yo‘ldashev. Q., Muftaydinov. Q. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi.2000 y

ANALITIK GEOMETRIYA ELEMENTLARINING VUJUDGA KELISHI VA AHAMIYATI

Kuchkarov M.
TDIU Andijon fakulteti
Ijtimoy-gumanitar fanlar kafedrasi
dotsenti, p.f.b.f.d.(PhD)
Rustamova M.
TDIU Andijon fakulteti
Buxgaltriya hisobi va audit
ta’lim yo’nalishi 1-kurs talabasi

Published: 28.03.2024

Cite this article: Kuchkarov M., Rustamova M. (2024). Analitik geometriya elementlarining vujudga kelishi va ahamiyati. Emro Science and Education, 1(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317150

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Analitik geometriya geometriyaning bir qismi bo’lib, uning asosiy tushunchalari algebraik nuqtai-nazardan o’rganiladi. Analitik geometriyaning asosiy tadqiqot vositalari koordinatalar metodi va elementar algebra metodlari bo’lib hisoblanadi.

Koordinatalar metodi XVII-asrlarda vujudga kelgan va qo’llanila boshlangan. Astronomiya, mexanika va texnikaning rivojlanishi u bilan bog’liq. Bu metod va analitik geometriya asoslari 1637 yilda fransuz matematigi Rene Dekart (1596-1650) tomonidan fanga kiritilgan. Ushbu sohaning rivojiga Pyer Ferma (1607-1665), Gotfrid Vilgelm Leybnits (1646-1716), Isaak Nyuton (1643-1727), Leonard Eyler (1707-1783) va boshqa olimlar katta hissa qo’shganlar.

Faraz qilaylik, x va y o‘zgaruvchi miqdorlarni bog‘lovchi $F(x,y)=0$ tenglama berilgan bo‘lsin. Bu tenglama o‘z navbatida bir o‘zgaruvchini, masalan, y ni ikkinchisining, ya’n x ning funksiyasi sifatida aniqlaydi. Agar (1) ni y ga nisbatan yechsak, $y=f(x)$ga ega bo‘lamiz. Bu yerda $f(x)$ bir qiymatli yoki ko‘p qiymatli funksiya bo‘lishi mumkin, bu funksiyaning qiymatlari x o‘zgarganda uzluksiz o‘zgaradi deb faraz qilaylik.

x va y miqdorlarni OXY dekart koordinatalar tekisligining biror M nuqtasini koordinatalari sifatida qaraymiz. U holda $y=f(x)$ tenglik x o‘zgaruvchining har bir qiymatiga y ning aniq bir qiymatini mos qo‘yadi.


Shu sababli, x ning har bir qiymatiga tekislikning koordinatalari x va $y=f(x)$ bo‘lgan aniq bir M nuqtasi mos keladi.

Agar x uzluksiz qiymatlarni qabul qilsa, u holda M Oxy tekisligida uzluksiz o‘zgarib, nuqtalarning geometrik o‘rnini chizadi, bu geometrik o‘rinni chiziq deyiladi.

Demak, chiziq koordinatalari $F(x,y)=0$ yoki $y=f(x)$ ko‘rinishdagi tenglamani qanoatlantiruvchi nuqtalarning geometrik o‘rni ekan. Ushbu tenglamalar o‘z navbatida chiziq tenglamasi hisoblanadi.

Agar $F(x,y)=Ax+By+C$ bo‘lsa, $F(x,y)=0$ ni 1-tartibli tenglama, u ifodalaydigan chiziq esa to‘g‘ri chiziq bo’ladi.

Faraz qilaylik, y o‘qini $A(0,b)$ nuqtada kesib o‘tuvchi va x o‘qiga α burchak ostida og‘ib o‘tgan to‘g‘ri chiziq berilgan bo‘lsin. $M(x,y)$ to‘g‘ri chiziqning ixtiyoriy nuqtasi bo‘lsin. Chizmaga asosan $BM=AB\cdot \operatorname{tg}\alpha$, bu yerda BM va AB lar $\overrightarrow{BM}$ va $\overrightarrow{AB}$ vektorlarning kesma kattaligi.



$BM = y - b, AB = x$ bo‘lgani uchun yuqoridagi formuladan

$$y - b = \operatorname{tg}\alpha \cdot x \text{ yoki } y = kx + b$$

kelib chiqadi. $k = \operatorname{tg}\alpha$ deb belgilanadi. $y - b = \operatorname{tg}\alpha \cdot x$ tenglamani berilgan to‘g‘ri chiziqning ixtiyoriy nuqtasini koordinatalari qanoatlantiradi, va aksincha koordinatalari $y - b = \operatorname{tg}\alpha \cdot x$ ni qanoatlantiradigan har qanday nuqta l to‘g‘ri chiziqda yotadi. k koeffitsiyent $y = kx + b$ ga asosan α burchakka bog‘liq bo‘lgani uchun burchak koeffitsiyenti b esa, boshlang‘ich ordinata bo’ladi.

Shuningdek, tekislikda to’g’ri chiziqlardan tashqari, tenglamalari x va y o`zgaruvchi koordinatalarga nisbatan ikkinchi darajada bo`lgan chiziqlar – ikkinchi tartibli egri chiziqlar ham mavjud.

Tekislikdagi ikkinchi tartibli egri chiziqning umumiy tenglamasini quyidagicha yozish mumkin:

$$Ax^2 + 2Bxy + Cy^2 + 2Dx + 2Ey + F = 0$$

Bu yerda A, B, C, D, E, F — o`zgarmas koeffitsiyentlar bo`lib, A, B, C koeffitsiyentlarning kamida bittasi nol bo`lmasligi kerak. Ushbu tenglama undagi koeffitsiyentlarning qiymatlariga qarab, turli egri chiziqlarni ifodalaydi.

Har bir egri chiziqlarning tenglamasini uning ta’rifiga asosan ular koordinata o`qlarini maxsus tanlab olish yo`li bilan chiqarish va tekshirish mumkin. Ikkinchi tartibli egri chiziqlarga aylana, ellips, giperbola va parabola kiradi.

Aylana deb, berilgan nuqtadan barobar uzoqlashgan nuqtalarning geometrik o`rniga aytiladi. Aylana tenglamasi: $(x - a)^2 + (y - b)^2 = R^2$

Ellips deb, tekislikning ixtiyoriy nuqtasining fokuslar deb ataluvchi ikki nu`qtasigacha masofalarining yig`indisi o`zgarmas son bo`lgan nu`qtalarning geometrik o`rniga aytiladi. Ellips tenglamasi: $\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = 1$

Giperbola deb, tekislikning har bir nuqtasidan berilgan fokuslar deb ataluvchi ikki nuqtagacha masofalari ayirmasinining absolyut qiymati o`zgarmas songa teng bo`lgan nuqtalarning geometrik o`rniga aytiladi.

Giperbola tenglamasi: $\frac{x^2}{a^2} - \frac{y^2}{b^2} = 1$

Parabola deb, tekislikning har bir nuqtasidan fokus deb ataluvchi nuqtasigacha va direktrisa deb ataluvchi to`g`ri chiziqqacha bo`lgan masofalari o`zaro teng bo`lgan nuqtalarning geometrik o`rniga aytiladi.

Parabola tenglamasi: $y^2 = 2px$

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Ahlimirzayev, A.Rizayev, M.Ibragimov, M.Kuchkarov. Oliy matematika (1-qism)/ o’quv qo’llanma/ Toshkent “Turon-iqbol”, 2015.
2. Yo.U.Soatov. Oliy matematika 1-jild./darslik/ Toshkent, «O‘qituvchi», 1992.
3. M.Kuchkarov, B.Umaraliyev. Oliy ta’limda talabalarning mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirish. Республика илмий-амалий анжумани материаллари.– Андижон: АндМИ,2022
4. M.Kuchkarov. The importance of using applied mathematics In teaching process. Journal of Pedagogical Inventions and Practices //**ISSN NO: 2770-2367**//USA, **Date of Publication: 04-11-2022**

ANDIJON VILOYATIDA AHOLI TURMUSH DARAJASI VA DAROMADLARINI O’ZGARISH TENDETSIYALARI.

O.X.Maxmudov
TDIU Andijon fakulteti
“ijtimoiy gumanitar fanlari ”
kafedrasi professor, i.f.d
Mirzaraximov Ibroximjon
“Iqtisodiyot” yo’nalishi 1- kusr talabasi
E-mail: ***mirzaraximov.28@gmail.com***

Annotasiya. Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasida aholi turmush darajasini baholash, aholi farovonligi, turmush darajasi va sifatini yaxshilash, ularning daromatini oshirish, aholi daromadlari va iste’mol sarf xarajatlari orasidagi bog’liqliklarni o’rganish va mavjud holatni tahlil qilish masalalari yoritilgan.

Kalit so’zlar: Aholi daromadlari, nominal daromat, real daromat, iste’molchi budjeti, aholi turmush darajasi, aholi xarajatlari, kambag’allik.

“Mavjud zaxira va imkoniyatlarimizni safarbar etgan holda kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni 1.6 barobarga oshirishga qaratilgan muhim vazifasi oldimizda turibdi. Shu tariqa respublika prezedenti Shavkat Mirziyoyev takidlaganidek 2030-yilga borib aholi jon boshiga to’g’ri keladigan daromadni 4